

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMUY
KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ALLAMURATOVA GULCHEXRA MAXSETBAEVNA

**INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH
TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHIYATINI OSHIRISH**

**08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Allamuratova Gulchexra Maxsetbaevna

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida
boshqaruval salohiyatini oshirish..... 3

Алламуратова Гулчехра Максетбаевна

Повышение управленческого потенциала в сферах услуг в условиях
инновационной экономики 29

Allamuratova Gulchexra Maxsetbaevna

Enhancing management capacity in the service sector under the conditions
of an innovative economy 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMUY
KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ALLAMURATOVA GULCHEXRA MAXSETBAEVNA

**INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH
TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHIYATINI OSHIRISH**

**08.00.05 - Xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti
08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5360 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismailov Akmal Maxsudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi Ph.D.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “16 fevral” soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (443 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferat 2026-yil “02 fevral” kuni tarqatildi.

(2026-yil “02 fevral” dagi №110 raqamli reyestr bayonnomasi).

J.K.Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha faslafa doktori, dotsent

K.Ubaydullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zgarishi, iste’mol bozorini kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to’ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o‘sishi bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro baholash tuzilmalari ma’lumotlari bo‘yicha “2024-yilda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi AQSHda – 79,68 %, Buyuk Britaniyada – 80,0 %, Fransiyada – 70,4 %, Kanadada – 70,2 %, Yaponiyada – 70,1 %ni tashkil etgan”¹. Binobarin, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish asosida rivojlantirish va sohada boshqaruv jarayonlarini raqamli texnologiyalarni qo’llash orqali takomillashtirish talab etilmoqda.

Jahonda xizmatlar sohasi korxonalari faoliyati boshqaruv jarayonlarining funksional samaradorligini ichki imkoniyatlardan foydalanish asosida oshirish, professional va sifat jihatdan yuqori xizmat turlarini ko‘rsatish orqali soha korxonalari raqobatbardoshligini ta’minalash hamda ERP (resurslarni elektron boshqarish), SCM (ta’minot zanjiri boshqaruvi) raqamli tizimlarini joriy etish asosida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahonda xizmatlar sohasini raqamlashtirish, umumiylashtirish, eksport tarkibida xizmatlar eksporti hajmini ko‘paytirish, zamonaviy xizmat turlarini yaratish orqali aholi daromadlarini oshirish, xizmatlarning yangi texnologik (rukutting, autsorsing, IT-menejer, IT-konsalting, kovorking va boshqa) turlarini yaratish orqali yalpi ichki mahsulot tarkibida ularning ulushini oshirish kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya qilish, bandlikni ta’minalash, aholining daromadi hamda turmush sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga katta etibor berilmoqda. Shu boisdan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rnini va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish”² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi xizmatlar sohasi korxonalarida boshqaruv salohiyatini aniq baholash orqali xizmatlar sifatini oshirishni ta’minalash, xizmat ko‘rsatish korxonalarida risklarni boshqarish va soha korxonalarida raqobatbardoshlikni ta’minalash mexanizmlarini takomillashtirish kabi chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldaggi PF-165-son

¹ The Global Economy - <https://www.theglobaleconomy.com/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” - <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

“2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2025-yil 27-fevraldagagi PQ-78-son “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 22-yanvardagi PQ-104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-iyundagi PQ-4752-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur yo‘nalishdagi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari xorijlik olimlar: F.Teylor, P.Druker, M.Porter, P.Hagstrom, M.P.Jonson, D.Ernst, P.Osborn, M.Leytch, D.Bell va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan³.

MDH olimlaridan ushbu sohada S.N.Korobkova, Ye.N.Jilsov, V.N.Kazakov, V.Ye.Komarova, Yu.A.Gribanov, R.F.Gataullin, I.V.Sorgutov, N.A.Vyaskova, B.B.Xrustalyov, K.A.Malisheva, I.V.Sirotkin, L.N.Tepman, A.F.Grishkov, A.A.Grigorev, V.A.Titov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar⁴.

³ Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента / Пер. с англ. – М.: Контроллинг, 1991. –104 с.; Друкер П. Посткапиталистическое общество. Новая постиндустриальная волна на Западе / Пер. с англ. – М.: Academia, 1999. – 288 с.; Друкер П. Практика менеджмента / Пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 398 с.; Drucker, P. (1977). People and Performance: The Best of Peter Drucker on Management. New York: Harper & Row. 317 p.; Порттер М. Конкуренция. –СПб., М., Киев: Издат.дом «Вильямс», 2002.; Hagstrom P. New Wine in Old Bottles: Information Technology Evolution in Firm. Strategy and Structure. J. Birkinshaw and P. Hagstrom, eds. The Flexible Firm. Capability Management in Network Organizations, Oxford University Press, Oxford etc, 2000. 204 p.; Johnson, M.P. (2012), In: Privett, N.A., editor. International Series in Operations Research and Management Science. Operations Management in Community-Based Nonprofit Organizations, Department of Public Policy and Public Affairs University of Massachusetts Boston, Boston, MA 02125-3393, USA; Ernst D. The evolution of a «digital economy»: research issues and policy challenges. URL: <http://www.eastwestcenter.org/publications/evolution-digital-economy-research-issues-and-policy-challenges>; Osborne, P. (2005), In: Stephen, O.P., Brown, K., editors. Managing Change and Innovation in Public Service Organizations. New York, NY: Madison Ave.; Leitch, M. “The Risk Management Gap”, Board Leadership, vol. 2017, no. 154, pp. 1-3. doi:10.1002/bl.30088.; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования / Пер. с англ; Под ред. В.Л. Иноземцева. – М.: Academia, 1993.

⁴ Коробкова С.Н. Сервисная деятельность. Учебное пособие. Под редакцией В.К.Романовича. – СПб.: Питер, 2006.; Жильцов Е.Н., Казаков В.Н. Экономика социальных отраслей сферы услуг. – М.: МГУ; ТЕИС, 2007. – 274 с.; Маницкая Л.Н., Жуков Б.М. Модернизация предприятий сферы услуг: концептуальная модель и инструментарные средства. // «Современные проблемы науки и образования» №3, 2011 г. <https://scienceeducation.ru/ru/article/view?id=4711>; Комарова В.Е., Улановская В.Д. Эффективность и интенсификация непроизводственной сферы. – М.: Экономика, 1997. – 249 с.; Грибанов Ю.А. Цифровая трансформация социально-экономических систем на основе развития института сервисной интеграции. Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. –СПб.: Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2019. – 42 с.; Гатауллин Р.Ф. Повышение эффективности сферы услуг населению: теория и методология. –Уфа: Восточный университет, 2001. – 132 с.; Соргутов, И.В. Методический подход к оценке уровня безопасности системы территориального жизнеобеспечения: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05 / И.В. Соргутов. – Екатеринбург, 2013. – 32 с.; Вяцкова Н.А.,

Xizmatlar sohasini rivojlantirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xizmatlar sohasida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari S.S.G'ulomov, N.X.Jumaev, M.Sharifxo'jaev, Yo.Abdullaev, N.K.Yo'ldoshev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'afurov, M.Q.Pardaev, I.S.Ochilov, I.S.Tuxliev, A.N.Aripov, A.M.Kadirov, R.I., Nurimbetov, B.S. Qalmuratov, G.X.Utemuratova, B.X.Erejepova, B.A Ismailov, N.D.Beglenov, G.Sh.Xonkeldieva, Q.P.Xalmuratov, B.S.Bekimbetov, J.K.Yusupovalarning ilmiy tадqiqotlarida o'z aksini topgan⁵.

Mazkur tadqiqotlarda xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari, xizmatlar sohasida boshqarish jarayonlarini tashkil etish, ijtimoiy xizmatlarning rivojlanish jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqamlashuvi sharoitida xizmatlar sohasidagi o'zgarishlar, shu bilan birga, xizmatlarni boshqarish jarayonlari samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Biroq zamonaviy o'zgarishlar ta'sirini e'tiborga olgan holda xizmatlar

Хрусталёв Б. Особенности формирования эффективной системы управления рисками на предприятиях строительного комплекса / Н.А.Вяцкова, Б.Б.Хрусталёв // Экономика и предпринимательство. – 2015, № 1 (54) –С. 404-413.; Хрусталёв Б.Б., Малышева К.А., Сироткин И.В. Влияние условий риска на эффективность функционирования и развития предприятий инвестиционно-отраслевого комплекса: Монография / К.А.Малышева, Б.Б.Хрусталёв, И.В.Сироткин. – Пенза: Изд-во ПГУАС, 2005. – 178 с.; Тэпман Л.Н. Риски в экономике / под ред. В.А. Швадара. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 380 с.; Гришков А.Ф. Оценка конкурентоспособности организации сферы услуг как основа механизма управления конкурентоспособностью // Вестник РАЕН. 2015. № 2 (19). С. 81–86.; Григорьев А.А., Титов В.А. Характеристика, структура, организация систем управления ERP, ERP II и ERP III // Фундаментальные исследования. 2017. № 2. С. 48–51.; Саломеева А. Что такое ERP-система. // Финансовый директор. URL: <https://fd.ru/articles/1231-chto-takoe-erp-sistema>.

⁵ Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Раҳмонов Д.А., Таҳходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. – Т.: IQTISODIYOT, 2019.; Шарифхўжаев М., Абдулаев Ё. Менежмент: дарслик. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 2001 й.; N.K.Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov. Menejment: o'quv qo'llanma. – Т.: O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. –392 б.; Бекмуродов А.Ш., Faфуров У.В. Ўзбекистон иқтисодиётини модернизациялаш ҳамда ислоҳотларни чукурлаширишнинг янги ва юксак босқичи йўлида. – Т.: Иқтисодиёт, 2008. –126 б.; Пардаев М.Қ., Очилов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Монография. – Т.: Иқтисод-молия, 2011. –172 б.; И.С.Тухлиев, З.О.Рахимов. Туризм хизматлари бозори. Ўкув кўлланма. – Самарқанд. –2018, –280 б.; Арипов А.Н., Иминов Т.К. Ўзбекистон ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси менежменти масалалари. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2005. –136 бет.; Кадыров А.М., Севликинц С.Г., Отто О.Э., Ахмедиева А.Т. Информационно-инновационное развитие экономики Узбекистана. Монография. – Т.: Иқтисодиёт, 2011. –132 с.; Nurimbetov R.I., Kalmuratov B.S.,Bekimbetov D.R Development of strategic management of service infrastructure in the digital economy// Science and Education in Karakalpakstan ISSN 2181-9203 №3/1 (34) 2023. 120-124 page; Калмуратов Б.С.,Бекимбетов Д.Р. Социально-экономический базис для формирования стратегии развития сферы услуг и его роль в развитии экономики//Sanlı ekonomika sharayatında aymaqa, isbilermenlik, innovaciyalıq texnologiyalar hám sanaat infrastrukturasın jedel pátte rawajlandırıw perspektivaları: mashqala hám sessimler atamasındağı Respublikalıq ilimiý-ámeliy konfereciya . 2023 jıl 10-oktyabr 569-571 betler; Хонкелдиева Г.Ш., Муминова Э.А., Мирзаев А.Т., Асрақулов А.А. Ўзбекистонда хизматлар соҳаси: замонавий ҳолат, муаммолар ва ривожланиш истиқболлари: Монография. – Тошкент: Наврӯз, 2020. –162 б.; Исмайлов Б.А. Хизмат кўрсатиш корхоналарини ижтимоий-иқтисодий ривожланишини стратегик режалаштириш // Бердак атындағы ҚМУ Хабаршысы журналы. – Нөкис 2022 №4. Б.-31-35. Утемуратова Г.Х. Хизмат кўрсатиш соҳасида инновацион фаолиятни молиялаширишнинг асосий йўналишлари. // «Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида аҳолининг иш билан бандлигини таъминлаш муаммолари ва истиқболлари». Халқаро илмий-амалий конференция. - Самарқанд, 2021. 3-6-6. Yerejepova B.A. Analysis of assessment methods of the quality of household services. // Conference on the role and importance of science in the modern world. Italy, Volume 01, Issue 01, 2024, - P. 19-26. Н.Д.Бегленов. Минтақадаги хизматлар соҳасининг маркетинг коммуникациясидан фойдаланиш салоҳиятини баҳолаш // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi –11/2-2024. - Б. 128-132.Yusupova J.K. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida innovatsion boshqaruvning funksiyalari va usullarning xususiyatlari // Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti ilmiy-uslubiy jurnali. - Т.; 2024 №1. Б. – 193-196.

sohasi faoliyatini iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida samarali tizim shaklida tashkil etish va undagi boshqaruv salohiyatini o‘rganish, o‘zgarishlarning sohani rivojlantirishdagi rolini belgilash muhim ahamiyat kasb etganligi sababli bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb hisoblanadi. Sohada mavjud muammolarni bartaraf etish va sohani kelajakda rivojlantirish uchun belgilangan yo‘nalishlar dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘ladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston bozor iqtisodiyoti institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi, 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-2017-0928465 “Qoraqalpog‘istonda agroturizmni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari” mavzusidagi davlat amaliy granti va Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy - tadqiqot ishlari rejasi, 2015-2017-yillarda bajarilgan F-1-77-sonli “Janubiy Orol bo‘yi ekologik sharoitida Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishning mintaqaviy metodikasini, metodologiyasini va strategiyasini ishlab chiqish (Quyi Amudaryo iqtisodiy tumani misolida)” fundamental tadqiqotlar davlat grantlari va Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyatini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmatlar sohasi tushunchasi shakllanishining nazariy asoslarini va o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruv salohiyatini baholashning uslubiy jihatlarini aniqlash;

O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi rivojlanishi holati tahlilini amalga oshirish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “MADINA” XK va “KARAUZYAK MANAGEMENT” MCHJ QK xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari boshqaruv salohiyati baholashning gorizontal va vertikal tahlilini amalga oshirish;

xizmatlar sohasida boshqaruv faoliyatini ko‘p omilli bog‘lanishlar asosida modellashtirish va prognozlashni amalga oshirish;

xizmatlar sohasi korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xizmatlar sohasi korxonalarining boshqaruv salohiyatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan oshirish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida xizmat ko‘rsatish sohasida, xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatuvchi xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalaridagi boshqaruv jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, vertikal va gorizontal tahlil, ekspert baholash, sintez, taqqoslash, statistik tahlil, anketa so‘rovlari o‘tkazish va tahlil qilish, SWOT-tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko‘rsatish korxonalarining boshqaruv salohiyatini oshirishning asosiy omillarini integral baholash uslubi boshqaruv salohiyati darajasining “yuqori xavfli” ($0 \leq Bs_{yux} < 0,3$), “xavfli” ($0,3 \leq Bs_x < 0,55$), “o‘rtacha xavfli” ($0,55 \leq Bs_o < 1,02$), “yuqori” ($1,02 \leq Bs_{yu} < 1,2$), “juda yuqori” ($1,2 \leq Bs_{jyu}$) qiymat diapazonlarini belgilash orqali takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra “xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyati” tushunchasining iqtisodiy mazmuni xizmatlar sifatini oshirish, qo‘shilgan qiymat yaratish hamda barqaror raqobatbardoshlikka erishish imkoniyatini belgilab beruvchi institutsional, tashkiliy va professional imkoniyatlar majmui nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari boshqaruv salohiyatining yuqori darajasini ta’minlash moliyaviy ($F_{molija}=1,006$), boshqaruv ($F_{boshq.}=1,041$), mehnat ($F_{meh.}=1,024$), marketing ($F_{mark.}=1,001$) komponentlarining maqbul qiymatlardagi o‘zaro muvofiqligi asosida takomillashtirilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari boshqaruv salohiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni ekonometrik modellashtirish asosida 2028-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmatlar sohasi korxonalari boshqaruv salohiyatini tashkil etuvchi omillarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur omillarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi muallif talqini ishlab chiqilgan;

xizmatlar sohasi korxonalari boshqaruv salohiyatini tashkil etuvchi faollik darajalarini baholash asosida boshqaruv salohiyatining yuqori darajasini ta’minlash bo‘yicha eng maqbul chegaralar aniqlangan;

xizmatlar sohasi korxonalari boshqaruv salohiyatini tashkil etuvchi ko‘rsatkichlar tizimi, boshqaruv salohiyatini baholashning mezon va usullari ishlab chiqilgan;

xizmatlar sohasi korxonalari boshqaruv salohiyatini gorizontal va vertikal tahlil asosida baholash orqali ularni oshirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan;

2028-yilga mo‘ljallangan xizmatlar sohasi korxonalarining boshqaruv salohiyatini ifodalovchi prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

xizmatlar sohasi korxonalarini boshqarishda boshqaruv salohiyatini oshirish bilan bog‘liq muammolarning yechimlari bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuv va usullarning tadqiqot maqsadi bilan mosligi hamda ilmiy asoslanganligi, tahlil uchun olingan ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, o‘tkazilgan

so‘rovnomalarning keng qamrovdagi respondentlar doirasida o‘tkazilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi, shuningdek, olingan natijalarining amaliyotda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xizmatlar sohasi korxonalarida boshqaruv tizimlarini joriy etish ratsionalligini baholash, faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarning ta’sir darajasini integral ko‘rsatkichlar orqali aniqlash hamda xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv salohiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ta’sir darajasini qiyosiy tahlil qilish yo‘nalishidagi nazariy va uslubiy yondashuvlarni rivojlantirish hamda mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xizmatlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha manzilli dasturlarni, omilli bog‘lanish asosida sohani, shuningdek, hududlarni rivojlantirish dasturlari maqsadli ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda hamda iqtisodiy ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”, “Menejment”, “Turizm iqtisodiyoti va menejmenti”, “Xizmatlar menejmenti”, “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti”, “Turizmda transport xizmatlari” kabi fanlarni o‘qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyatini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat ko‘rsatish korxonalarining boshqaruv salohiyatini oshirishning asosiy omillarini integral baholash uslubi boshqaruv salohiyati darajasining “yuqori xavfli” ($0 \leq Bs_{yux} < 0,3$), “xavfli” ($0,3 \leq Bs_x < 0,55$), “o‘rtacha xavfli” ($0,55 \leq Bs_o < 1,02$), “yuqori” ($1,02 \leq Bs_{yu} < 1,2$), “juda yuqori” ($1,2 \leq Bs_{ju}$) qiymat diapazonlarini belgilash orqali takomillashtirish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 16-sentabrdagi 145/09-09/211-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida xizmat ko‘rsatish korxonalari boshqaruv salohiyati holati va resurslar qo‘sish sur’atining iqtisodiy samaradorligini baholash natijalari aniqlilik darajasining 6,12 foizga oshishiga erishilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra «xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyati» tushunchasining iqtisodiy mazmunini xizmatlar sifatini oshirish, qo‘silgan qiymat x yaratish hamda barqaror raqobatbardoshlikka erishish imkoniyatini belgilab beruvchi institutsional, tashkiliy va professional imkoniyatlar majmui nuqtayi nazaridan takomillashtirish bo‘yicha nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Turizmde transport xizmetleri” nomli o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-oktyabr, 387-son buyrug‘i). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida talabalarda institutsional, tashkiliy va professional imkoniyatlar majmui nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan «xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv

salohiyati» tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini boshqaruv salohiyatining yuqori darajasini ta'minlash moliyaviy ($F_{moliya}=1,006$), boshqaruv ($F_{boshq.}=1,041$), mehnat ($F_{meh.}=1,024$), marketing ($F_{mark.}=1,001$) komponentlarining maqbul qiymatlardagi o'zaro muvofiqligi asosida takomillashtirish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 16-sentabrdagi 145/09-09/211-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida xizmat ko'rsatish korxonalarining boshqaruv salohiyati tarkibini tashkil etuvchi omillarning vazn ko'rsatkichlarini belgilanishi imkonini yaratilgan va boshqarish samaradorligi 17 %ga ortgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini boshqaruv salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni ekonometrik modellashtirish asosida 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 16-sentabrdagi 145/09-09/211-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida xizmat ko'rsatish korxonalarini boshqaruv salohiyati ko'rsatkichlarini prognoz qilish amaliyotining takomillashishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyadan o'tkazilganligi. Tadqiqot natijalarini 10 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta maqola (shundan 7 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plamlarida 10 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MA'ZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbliji asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflab berilgan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko'rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida xizmatlar sohasi tushunchasi shakllanishining nazariy asoslari va shu bilan birga xizmatlar sohasining rivojlanish xususiyatlari hamda innovatsion iqtisodiyot

sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruv salohiyatini baholashning uslubiy jihatlari o'r ganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotida "xizmatlar sohasi" atamasi mohiyati ham tadqiq etilgan bo'lib, u mazmun-mohiyatiga ko'ra iqtisodiyotning ma'lum bir sohasini ifodalaydi. "Xizmatlar sohasi" tushunchasiga iqtisodchi olim va tadqiqotchilar ko'plab fikr va mulohazalar bildirishgan. Xizmatlar sohasining terminologik aspektidagi ilmiy adabiyotlar tahlili "xizmatlar sohasi" tushunchasi mazmuni tarkibini belgilab beruvchi ayrim yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Bugungi kunda "xizmatlar sohasi" tushunchasining mazmun-mohiyatini o'zida aks ettirgan tadqiqotlarni o'r ganish asosida tushunchani unga yondashuvlarning asosiy belgilari va xususiyatlari asosida tasniflashga harakat qilindi. Bunda asosiy e'tibor "xizmatlar sohasi"ning mohiyatini ochib beruvchi turli davrlardagi tadqiqotchilarining ushbu atamaga bergen ta'riflariga qaratilgan (1-jadval).

1-jadval "Xizmatlar sohasi" tushunchasiga yondashuvlar tasnifi⁶

Yondashuv nomi	Xususiyatlari	Yondashuvning asosiy belgisi
Jarayonli yondashuv	Xizmatlar sohasini uzluksiz xizmat ko'rsatish va aholi ehtiyojlarini qondirish jarayonini amalga oshiruvchi bir-biriga bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy va ishlab chiqarish funksiyalari sifatida ko'rib chiqishdan iborat.	Faoliyatning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratish
Marketing yondashuvi	Xizmatlar sohasini iste'molchi manfaatlari yo'lida turli yo'nalishdagi shakllangan xizmatlar majmui deb hisoblaydi.	Iste'molchilarga e'tibor qaratish
Tarmoq yondashuvi	Xizmatlar sohasini turli tarmoqlar va faoliyat sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi xizmatlar majmui sifatida ko'rib chiqishga asoslanadi.	Faoliyat turiga e'tibor qaratish
Xulq-atvor yondashuvi	Xizmat ko'rsatish sohasini korxona xodimlari va iste'molchilarning bilimlari, qobiliyatları va boshqa qiziqishlariga qarab o'zgaradigan xizmatlar majmui deb hisoblaydi.	Inson xulq-atvori, faoliyati va natijalariga e'tibor qaratish
Iqtisodiy yondashuv	Xizmatlar sohasini tadbirkorlik va iste'molchilar manfaatlari bilan bog'liq iqtisodiy maqsadlar amalga oshiriladigan va korxona faoliyatining samarali natijasiga erishiladigan tizim sifatida qaraladi.	Foyda olishga e'tibor qaratish
Tashkiliy yondashuv	Xizmatlar sohasini munosabatlarning aniq belgilangan tartibiga ega bo'lgan boshqaruv bo'linmalari o'rtasidagi munosabatlar tizimi deb hisoblaydi.	Munosabatlar ishtirokchilari o'zaro aloqalarini muvofiqlashtirishga e'tibor qaratish
Vaziyatli yondashuv	Xizmatlar sohasini korxonaning bozordagi xatti-harakatlarini va uni boshqarish xususiyatini aniqlaydigan tashqi va ichki omillarning o'zgarishiga javob beradigan tizim sifatida ko'rib chiqishga asoslangan.	Bozorning o'zgarish sharoitlariga e'tibor qaratish
Infratu-zilmaviy yondashuv	Xizmatlar sohasini subyektlar va obyektlardan iborat tizim deb hisoblaydi, ularning nisbatlari va munosabatlarini har bir aniq holatda aks ettiradi, ular ichida o'zaro hamkorlikning eng samarali shakllarini tanlash masalalari hal etiladi.	Muvozanat va barqarorlikka e'tibor qaratish

6 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadval davomi

Resursli yondashuv	Xizmatlar sohasini korxonalar tomonidan ularning barqaror rivojlanishi manfaatlari yo‘lida xo‘jalik faoliyatini samarali olib borishning shart-sharoitlarini shakllantirish maqsadida resurs ta’mnotinining o‘zgaruvchanligiga va turli manbalardan taqchil bo‘lgan resurslarni to‘ldirish zaruratiga moslasha oladigan tizim deb hisoblaydi.	Resurslardan samarali foydalanishga e’tibor qaratish
Kommunikatsion yondashuv	Xizmatlar sohasini samarali biznes tuzilmalarini qurishda vakolatlar, funksiyalar va imkoniyatlar asosida ratsionalallashtirish va tizimlashni talab qiluvchi subyektlar o‘rtasidagi xilma-xil aloqalarga ega bo‘lgan tizim deb hisoblaydi.	O‘zaro aloqa va munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga e’tibor qaratish
Motivatsion yondashuv	Xizmatlarni tizim sifatida hisobga olgan holda, subyektlar manfaatlarining tabaqalanishi, resurs mayjudligi, xodimlarning xulq-atvoriga moslashuvchanligi asosida biznesni rivojlantirish strategiyasi va taktikasini bozor muammolarini hal etish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimda turli aloqalar o‘rtasidagi kelishuvlarni tuzish, muayyan motivatsion dominantlikka moslashishga asoslanadi.	Manfaatlar va ziddiyatlarni hal etishga e’tibor qaratish
Takror ishlab chiqarish nuqtai nazaridan yondashuv	Xizmatlar sohasini foydali ta’sir birligiga minimal xarajatlar bilan muayyan bozorda iste’molchilarining ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlarni ko‘rsatishni uzluksiz qayta tiklashga yo‘naltirilgan tizim deb hisoblaydi.	Xizmatlarning qayta tiklanishiga e’tibor qaratish
Institusional yondashuv	Xizmatlar sohasini muayyan institusional muhitda faoliyat ko‘rsatuvchi va iste’molchilarining ehtiyojlarini va rivojlanayotgan sharoitlarga qarab zarur xizmatlarni ko‘paytiruvchi turli tadbirkorlik tuzilmalari majmuasi deb hisoblaydi.	Fuqarolarning turli birlashmalari majmuiga e’tibor qaratish
Innovatsion yondashuv	Xizmatlar sohasini jamiyatning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy muhitini real holatda xo‘jalik faoliyati amaliyotida yangiliklarni, g‘oyalarni idrok eta oladigan, tashabbus ko‘rsata oladigan va amalga oshiradigan tizim deb hisoblaydi	Innovatsion qarorlarni amalga oshirishga e’tibor qaratish
Resursli-integratsion yondashuv	Xizmatlar sohasini ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari va axloqiy meyorlar hamda qoidalarni amalga oshirish asosida o‘zaro hamkorlik qiluvchi tomonlarning manfaatlari muvozanatiga erishish uchun turli xil sifat, kelib chiqish va yo‘nalishdagi resurslarni birlashtiradigan ajralmas tizim deb hisoblaydi	Turli yo‘nalish va kelib chiqishdagi resurslarni birlashtirishga e’tibor qaratish


Xorijiy mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining tashkiliy tuzilishi tadqiqotlar asosida respublikamizda xizmatlar bozorining tashkiliy tuzilmasini amal qilish mexanizmlari, mulkchilik shakllari, ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lami, ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari va yo‘nalishlari bo‘yicha tasniflash mumkin.

Korxonaning boshqaruv salohiyatini aniqlashga bo‘lgan ushbu yondashuv to‘g‘ri yondashuv bo‘lib, korxonadagi mavjud xizmat ko‘rsatish foaliyat darajasini aniqlash va o‘lchash imkoniyati yaratilishi va shu bilan birga alohida ko‘rsatkich sifatida talqin qilinishi mazmunan to‘g‘ri hisoblanadi.

Shu bilan birga biz tomondan korxona boshqaruv salohiyati tushunchasining nazariy va iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib ushbu yondashuvga mos ravishda ehtimoliy boshqaruv salohiyat darajasini aniqlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1-rasmga qarang).

O‘z navbatida korxonalarining ehtimoliy boshqaruv salohiyat darajasini aniqlash unga berilgan nazariy ta’riflarga mos kelishi bilan izohlansa, boshqa

tarafdan korxonaning ehtimoliy boshqaruv salohiyati ushbu korxonaning xizmat ko'rsatish faoliyati davomida erishishi mumkin bo'lgan natijalarning ehtimoliy ko'rsatkichini ifodalaydi. Jumladan, ehtimoliy boshqaruv salohiyat darajasini aniqlashda biz tomondan dispersiya va o'rtacha kvadratik chetlanish ko'rsatkichlaridan foydalanilgan. Korxonalarining boshqaruv salohiyatini aniqlash va baholash bo'yicha uslubiy yondashuvlar yuzasidan olib borilgan kuzatuvlar natijasida shuni aytish mumkinki, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun mos keluvchi boshqaruv salohiyatni uslubiy baholash bo'yicha biz tomondan taklif qilingan.



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari boshqaruv salohiyati tarkibi⁷

Bizningcha uslubiy yondashuvga ko'ra boshqaruv jarayonidagi mavjud imkoniyat va qobiliyatlar yig'indisi sifatida talqin qilinuvchi "boshqaruv salohiyati" tushunchasining mazmuni ehtimoliy faollikning mavjudligini ham hisobga olingan holda, xizmat ko'rsatish korxonalaridagi faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsifi bo'lib, barcha mavjud faollik turlari umumiyl qobiliyatlar yig'indisi sifatida ta'rif berish mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonasi boshqaruv salohiyati tarkibiy qismlarini biz tomondan taklif etilgan o'rtacha o'sish sur'ati indeksi asosida baholash optimal mahsulot ishlab chiqarish miqdorini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

korxonalarining zararsizlik nuqtalarini aniqlash va prognoz qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ta’riflarning barchasi "boshqaruv salohiyati" tushunchasini aniqlash bo‘yicha klassik qarashlarni inobatga olgan holda, xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing boshqaruv salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni taklif etamiz. Bizningcha, xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing boshqaruv salohiyati – bu barcha mavjud faoliy turlari, jumladan moliyaviy, mehnat, marketing, boshqaruv va ehtimoliy faolliliklarning umumiyoq qobiliyatlarini yig‘indisidir. Bu esa xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasi tashqi muhitga bog‘liq holda o‘zaro ta’sir jarayonida tayyor qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan bozor ehtiyojlarini aniqlash va qondirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish asosida korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minalash qobiliyatidir. Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uslubiy yondashuvga ko‘ra faqat mavjud imkoniyat va qibiliyatlar yig‘indisi sifatida talqin qilinuvchi "boshqaruv salohiyati" tushunchasining mazmuni ehtimoliy faollikning mavjudligi ham hisobga olingan holda, xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing tatbiqan faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsifi, tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi, barcha mavjud faoliy turlari umumiyoq qibiliyatlarini yig‘indisi sifatida qaralishi lozim.

Shunday ekan, bizningcha korxona boshqaruv salohiyatini belgilovchi yagona meyoriy koeffitsiyent mavjud bo‘lishi talab etiladi. Bizningcha ushbu ko‘rsatkichni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lib, boshqaruv salohiyatni tashkil etuvchi barcha ko‘rsatkichlarning umumiyoq integral koeffitsiyenti orqali ifodalishini anglatadi.

$$Bs = (M_f * Mar_f * Meh_f * Bf * Ef)^{1/5} \quad (1)$$

Bu yerda (1) Bs - xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing boshqaruv salohiyati koeffitsiyenti; M_f – xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing moliyaviy faoliyi koeffitsiyenti; Mar_f – xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing marketing faoliyi koeffitsiyenti; Meh_f – xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing mehnat faoliyi koeffitsiyenti; B_f – xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing boshqaruv faoliyi koeffitsiyenti; E_f – xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing ehtimoliy faoliyi koeffitsiyenti.

Mazkur formula asosida korxonaning boshqaruv salohiyatining umumiyoq qiymati hosil qilinadi va ushbu ko‘rsatkich mazkur korxonaning iqtisodiy holati hamda iqtisodiy rivojlanish imkonini belgilab beradi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasing boshqaruv salohiyatini ifodalashda yagona ko‘rsatkichdan foydalanish lozim va bu ko‘rsatkich orqali korxonaning umumiyoq iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish kerak bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **"O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi rivojlanishi holati tahlili amalga oshirilgan va shu bilan birga Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi «MADINA» XK va «KARAUZYAK MANAGEMENT» MCHJ QK xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari boshqaruv salohiyati baholashning gorizontal tahlili hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi turli mulkchilik shakllariga ega «MADINA» XK va «KARAUZYAK MANAGEMENT» MCHJ QK xizmat

ko'rsatish sohasi korxonalarining boshqaruv salohiyatini vertikal tahlil asosida baholash amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda xizmatlar sohasining iqtisodiy taraqqiyoti sezilarli darajada tezlashmoqda, bu holat mazkur sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi, xususan yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi ortib borayotgani bilan izohlanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tahlillarda biz vertikal tahlil metodidan foydalandik. 2-jadval ma'lumotlari asosida shuni kuzatish mumkinki, 2014 - 2024 yillar oralig'ida xizmatlar sohasining tarmog'ida o'sish yuqori sur'atlar bilan kechgan bo'lib, manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,28 ga teng bo'lgan.

2-jadval

Qoraqalpog'ston Respublikasining asosiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari⁸

Yillar	2014	2018	2020	2024	O'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti
YaiM (mlrd. so'm)	186829,5	426641,0	605514,9	1454573,9	1,19
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd. so'm)	81794,3	187425,6	250250,6	467041,5	1,17
Sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd. so'm)	84011,6	235340,7	368740,2	885818,9	1,22
Transport va aloqa (mlrd. so'm)	4195,1	8648,6	53662,9	145124,4	1,61
Xizmatlar sohasi (mlrd. so'm)	68032,1	150889,8	219978,5	818428,3	1,29
Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	20060,4	51129,3	88130,3	233832,9	1,22
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida bandlar soni (ming kishi)	3528,9	3537,2	3499,2	4381,7	1,02

Shu bilan birga, mazkur davr ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) boyicha o'rtacha rentabellik koeffitsiyenti 1,19 ga teng bo'lgan. Shu orada, xizmatlar sohasining rivojlanish ko'rsatkichi 1,29 darajasida qayd etilgan. Bu holat, o'z navbatida, xizmatlar sohasining jadal rivojlanayotgani, boshqa yirik tarmoqlarga nisbatan yuqori darajadagi o'sish va rentabellik bilan ajralib turganini tasdiqlaydi.

Tahlil qilinayotgan yillarda xizmatlar sohasida band bo'lgan ishchi kuchi sonining o'sib borishi natijasida bu yo'nalishdagi o'rtacha rentabellik koeffitsiyenti 1,02 ni tashkil qilgan. Shu bilan birga, aholining umumiylar daromadlari hajmi boyicha manfaatdorlik ko'rsatkichi 1,2 darajasida bo'lganligi kuzatilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda xizmatlar sohasining iqtisodiy taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu holat, eng avvalo, mazkur sohaning mamlakat iqtisodiyotida, xususan, yalpi ichki mahsulotdagi ulushining yuqoriligi bilan bog'liqdir. Respublikamizda xizmatlar yaratish hajmi 2014-yilda 68,0 trln. so'mni tashkil etgani holda, 2024-yilda 818,4 trln. so'mga yetgan. O'tgan 11 yil davomida sohada yaratilgan xizmatlar hajmi 12,04 barobarga o'sish ko'rsatkichiga erishgan (3-jadvalga qarang).

Ko'rileyotgan davr oralig'ida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning yuqori rivojlanishi yashash va ovqatlanish (261,9 barobar), moliya (20,2 barobar), transport xizmatlari (6,1 barobar), savdo xizmatlari (7,9 barobar) va ta'lim (13,6 barobar) xizmatlari sohalarida jadal sur'atlarda o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Tahlil amalga oshirilgan yillar

⁸ Statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining barqaror sur'atlarda rivojlanganligini hamda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushiga ham sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ham e'tirof etish lozim. Ma'lumotlardan so'nggi 11 yil davomida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining jadal ortib borganligini kuzatishimiz mumkin. Bu, albatta, oxirgi yillarda iste'molchilarning xizmatlar sohasida yaratilayotgan nomoddiy mahsulotlarga bo'lgan talabining ortib borayotganligini ko'rsatadi.

3-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (trln. so'm hisobida)⁹

Ko'rsatkichlar	Yillar											O'rtacha o'zgarish koefitsiyenti
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	
Xizmatlar - jami	68,0	78,5	97,1	118,8	150,9	193,7	219,9	284,4	366,9	649,8	818,4	1,29
<i>jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>												
Axborot va aloqa xizmatlari	4,5	5,2	6,3	8,2	10,3	10,9	13,9	17,8	24,5	39,1	56,1	1,27
Moliya xizmatlari	6,7	8,2	9,9	15,0	21,3	34,0	47,8	59,7	80,8	107,3	135,5	1,32
Transport xizmatlari	23,8	26,8	30,6	36,2	44,2	54,5	53,7	67,2	84,0	114,6	145,1	1,18
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari	0,7	0,9	3,0	3,7	4,7	5,9	5,4	8,4	13,1	144,2	183,3	2,34
Savdo xizmatlari	19,0	21,4	27,4	32,0	39,7	48,7	57,6	72,5	89,8	125,9	149,6	1,21
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari	2,2	2,8	3,4	4,0	4,9	6,0	6,0	8,1	9,6	16,6	20,6	1,24
Ta'lif sohasidagi xizmatlari	2,2	2,7	3,3	4,4	5,4	7,2	8,5	12,1	15,9	24,5	30,0	1,28
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari	0,9	1,1	1,4	1,7	2,2	3,1	3,4	5,1	6,6	12,9	15,8	1,32
Ijara va lizing bo'yicha xizmatlari	1,5	1,8	2,3	2,6	3,3	3,7	4,2	5,4	6,5	7,6	9,7	1,19
Kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari	1,4	1,7	2,2	2,3	2,6	3,2	3,4	4,7	5,7	9,5	11,8	1,23
Shaxsiy xizmatlari	2,0	2,4	2,9	3,1	3,7	4,6	5,9	8,9	9,7	12,7	15,5	1,21
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari	0,7	0,8	1,1	1,6	3,0	4,5	4,9	6,3	7,3	8,9	11,2	1,31
Boshqa xizmatlari	2,3	2,8	3,2	3,9	5,5	7,3	8,1	14,4	16,7	24,4	34,0	1,29

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan xo'jalik subyektlari soni 7549 tani tashkil etib mazkur korxonalar xizmat ko'rsatish tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar hisoblanishadi. Ushbu korxonalar orasidan tadqiqot obyekti sifatida 5 ta korxona tanlab olingan bo'lib, mazkur korxonalar Qoraqalpog'iston Respublikasining turli tumanlarida joylashganligi va turli mulkchilik shakllariga ega ekanliklari bilan bir biridan farqlanadi (4-jadvalga qarang).

Ushbu korxonalarining boshqaruvi salohiyatini biz tomonidan taklif etilgan uslubiyot asosida tahlil qilinib ushbu korxonalarining boshqaruvi salohiyati ko'rsatkichlari tahlilihi hisoblangan.

Boshqaruvi salohiyatni baholashning ushbu usuli korxona faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu masalaning dolzarbligi shundan iboratki, to'g'ri qaror qabul qilish uchun moliyaviy resurslarning mavjudligini o'rganish, ulardan foydalanish va boshqarishning maqsadga muvofiqligi hamda samaradorligi aniqlanadi, korxonaning to'lov qobiliyati baholanadi, uning moliyaviy munosabatlari tahlil qilinadi. Ushbu ko'rsatkichlarni

⁹ Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

baholash korxonani samarali boshqarish uchun ham o‘ta zarurdir. Ular o‘z navbatida, rahbarlarga korxona faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va takomillashtirishga yordam beradi.

Bunday tahlil gorizontal va vertikal tahlilga asoslangan. Korxona boshqaruv salohiyatini baholashda gorizontal va vertikal tahlilni amalga oshirish, o‘z navbatida, daromadlar va pul mablag‘lari to‘g‘risidagi hisobotlarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni vizual tarzda taqdim etish va korxonani boshqarish faoliyatini qanday davom ettirishni hal qilishda yordam berishdir.

4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yurituvchi xizmat ko‘rsatish korxonalarini ko‘rsatkichlari¹⁰

№	Joylashgan joyi	Korxona maqomi	Korxona nomi	Faoliyat turi	Boshqaruv salohiyati				
					Moliyaviy faoliik	Marketing faoliqi	Mehnat faoliqi	Boshqaruv faoliqi	Ehtimoliy faoliik
1	Qorao‘zak tumani	QK (xorijiy)	"KARAUZYAK MANAGEMENT" MCHJ QK	Kompleks ma'muriy-boshqaruv xizmati ko‘rsatish	0,62	2,61	2,48	0,53	1,31
2	Nukus shaxri	XK	"MADINA" XK	Ixtisoslashgan do‘konlarda farmatsevtika tovarlari chakana savdosи	1,16	0,64	1,35	0,62	0,91
3	Chimboy tumani	XK	KANAT-KAYRAT XK	Boshqa telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish	1,01	0,61	1,12	0,75	0,73
4	Ellikqala tumani	MChJ	"ELLIKQAL`A SAVDO" MCHJ	Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	0,67	0,72	1,27	0,78	0,89
5	Amudaryo tumani	AJ	"DAVUM RAJAB" MCHJ	Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	0,54	0,63	0,98	0,61	0,66

Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining boshqaruv salohiyatini baholashda turli mulkchilik shakllariga ega xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining moliyaviy, mehnat, marketing, innovatsion, boshqaruv va ehtimoliy resurslari koeffitsiyent ko‘rsatkichlarini ham hisoblab chiqish kerak bo‘lib, ushbu resurslar turlarining integral ko‘rsatkichi orqali har bir resurslar turlariga alohida yondashuv asosida ularning rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi (5-jadvalga qarang). Jumladan, ushbu koeffitsiyentlardan shuni ko‘rish mumkinki, ushbu xizmat ko‘rsatish sohasi korxoanlarining, jumladan, «MADINA» XK xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasining marketing resurslari yillar bo‘yicha o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti 1,3ga, boshqaruv resurslari yillar bo‘yicha o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti 1,4ga teng bo‘lganligi ko‘rish mumkin. Bundan «MADINA» XK xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasining mazkur resurslar turlari bo‘yicha yuqori samarali boshqaruv amalga oshirilayotganligini ko‘rish mumkin.

Ushbu ko‘rsatkichlar ham o‘rganilayotgan xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasining yuqori boshqaruv samaradorligiga ega ekanligidan dalolat beradi.

¹⁰ Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

5-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining boshqaruv va marketing faolliklari koeffitsiyent ko‘rsatkichlari¹¹

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil		O‘rtacha yillik o‘zgarish koeffitsiyenti	
		«MADINA» XK	«KARAUZ YAK MANAGE MENT» MCHJ QK	«MADINA» XK	«KARAUZ YAK MANAGE MENT» MCHJ QK	«MADINA» XK	«KARAUZ YAK MANAGE MENT» MCHJ QK	«MADINA» XK	«KARAUZ YAK MANAGE MENT» MCHJ QK	«MADINA» XK	«KARAUZ YAK MANAGE MENT» MCHJ QK	«MADINA» XK	«KARAUZ YAK MANAGE MENT» MCHJ QK
1	Boshqaruv faolligi												
1.1	Foydalilik koeffitsiyenti	1,3	1,3	1,3	1,2	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3
1.2	Faoliyatning manfaatliligi koeffitsieti	1,4	1,5	1,3	1,3	1,4	1,3	1,4	1,3	1,4	1,4	1,5	1,3
1.3	Ishchi va xodimlar real daromadi koeffitsiyenti	1,3	1,3	1,4	1,3	1,3	1,2	1,3	1,2	1,3	1,3	1,3	1,4
1.4	Ishchi va xodimlarning ishdan bo‘shatilganlik koeffitsiyenti	1,3	1,3	1,3	1,2	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3
2	Marketing faolligi												
2.1	Bozor ulushi koeffitsiyenti	1,3	1,3	1,3	1,2	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3
2.2	Tovarlarning realizatsiya koeffitsiyenti	1,3	1,5	1,4	1,2	1,3	1,3	1,3	1,4	1,5	1,3	1,5	1,4
2.3	Marketolog xodimlar koeffitsiyenti	1,4	1,5	1,3	1,3	1,4	1,3	1,4	1,3	1,5	1,4	1,5	1,3
2.4	Marketing xarajatlari koeffitsiyenti	1,3	1,3	1,2	1,3	1,3	1,2	1,3	1,2	1,3	1,3	1,3	1,2
2.5	Muayyan hududdagi tenderlarda ishtiroki koeffitsiyenti	1,1	1,2	1,2	1,2	1,3	1,2	1,3	1,2	1,3	1,3	1,3	1,2

¹¹ Xizmat ko‘rsatish korxonalari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

«KARAUZYAK MANAGEMENT» MCHJ QK xizmat ko'rsatish sohasi korxonasining marketing resurslari yillar bo'yicha o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti 1,3ga, boshqaruv faolligi yillar bo'yicha o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti 1,2ga teng bo'lganligi ko'rish mumkin. Bu esa, o'rtacha solishtirilayotgan 2 ta xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining ichida eng past ko'rsatkichga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining boshqaruv salohiyati ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ularni quyidagi guruhlarga ajratish lozim:

- yuqori rentabellikka ega korxonalar, ya'ni, kapitalning rentabelligi investitsiya vositalarining daromadlilik darajasidan yuqori bo'lgan korxonalar;
- past rentabelli korxonalar, ya'ni kapitalning rentabelligi investitsiya vositalarining daromadlilik darajasidan past bo'lgan korxonalar;
- zarar ko'rgan korxonalar, ya'ni, hisobot davrida sof moliyaviy natijasi salbiy qiymatga ega bo'lgan korxonalar.

Biz taklif qilgan integral usul bo'yicha o'rganilayotgan korxonalar resurslari ko'rsatkichlarini hisoblash quyidagi uslubiy yondashuvlarga asoslanadi:

keltirilgan formulalar bo'yicha hisoblangan moliyaviy faoliyat davri korxona kapitalining aylanmasini yaxshi tavsiflaydi, ya'ni, u asosida hisoblangan rentabellik normasi ko'proq aniqlikka ega hisoblanadi;

– asosiy vositalar va tugallanmagan ishlab chiqarishni qayta baholashning qo'llaniladigan usullari, inflyatsiya, kompaniyaning inventarizatsiya sohasidagi siyosati, hisob siyosati va boshqalar;

– korxonaning boshqaruv salohiyatini baholash jarayonida moliyaviy-iqtisodiy sikl davridagi davlat investitsiya vositalarining rentabelligiga mos keladigan kapital rentabelligining maqbul darajasini hisoblash taklif etiladi, chunki:

a) past rentabellik bilan kapital egalari iqtisodiy foyda olmaydilar, bu korxonaga investitsiyalarni nomaqbul qiladi va uzoq muddatda korxona boshqaruv salohiyatini pasaytiradi;

b) yuqori rentabellik korxonaning kapital aylanmasini saqlab qolgan holda, sotish rentabelligini pasaytirish orqali moliyaviy natijalarni oshirish uchun zaxiraga ega ekanligini anglatadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish sohasi korxonasi boshqaruv salohiyati ko'rsatkichlarini hisoblashning quyidagi ketma-ketligini taklif qilamiz. Birinchidan, dastlabki hisob-kitoblar amalga oshiriladi, ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- tahlil qilinayotgan korxona uchun ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyat davri hisoblab chiqiladi;
- kapital rentabelligining optimal darjasini Markaziy bank tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi va ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyat davridan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish lozimki, ekspert-so'rovlari natijalariga

ko‘ra xizmat ko‘rsatish korxonalari boshqaruv salohiyatini oshirishda moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat va ehtimoliy faollik turlarini integral baholash bo‘yicha «juda yuqori» ($1,2 \leq Bs_{jyu}$), «yuqori» ($1,02 \leq Bs_{yu} < 1,2$), «o‘rtacha xavfli» ($0,55 \leq Bs_o < 1,02$), «xavfli» ($0,3 \leq Bs_x < 0,55$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq Bs_{yux} < 0,3$) koeffitsiyent chegaralari doirasida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish korxonalari boshqaruv salohiyati o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti shkalasini ekspertlar fikri asosida shakllantirish va ularning kelishuvchanlik darajasi sifatini baholash uchun Xarringtonning verbal - sonli shkalasidan foydalanish tavsiya etiladi (6-jadval).

6-jadval

Xizmat ko‘rsatish korxonalari boshqaruv salohiyati o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti shkalasi¹²

Nº	O‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyentining son qiymatlari	Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajalari
1	($0 \leq Bs_{yux} < 0,3$)	Yuqori xavfli
2	($0,3 \leq Bs_x < 0,55$)	Xavfli
3	($0,55 \leq Bs_o < 1,02$)	O‘rtacha xavfli
4	($1,02 \leq Bs_{yu} < 1,2$)	Yuqori
5	($1,2 \leq Bs_{jyu}$)	Juda yuqori

Korxonaning boshqaruv salohiyati koeffitsiyentini aniqlash bo‘yicha biz tomondan keltirilgan formula, asosida yuqorida tahlil qilingan ikkita xizmat ko‘rsatish korxonalarining boshqaruv salohiyati bo‘yicha integral ko‘rsatkichni aniqlab olamiz. Demak, “MADINA” XK xizmat ko‘rsatish korxonasi boshqaruv salohiyati integral koeffitsiyenti 1,26 ga bo‘lganligi ko‘rish mumkin.

$$Bs_1 = (1,4 * 1,4 * 1,4 * 1,4 * 0,82)^{1/5} = 1,26 \quad (2)$$

“KARAUZYAK MANAGEMENT” MCHJ QK xizmat ko‘rsatish korxonasining boshqaruv salohiyati integral koeffitsiyenti esa 1,11 ga teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

$$Bs_2 = (1,4 * 1,2 * 1,2 * 1,2 * 0,71)^{1/5} = 1,11 \quad (3)$$

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki xizmat ko‘rsatish korxonalarining boshqaruv salohiyatini integral baholashning ahamiyati muhim bo‘lib, unda integral baholash asosida korxonaning barcha aspektlarini hisobga oladi, bu esa korxonaning umumiy holatini va rivojlanish istiqbollarini aniqroq baholash va boshqarish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatidiki, xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari moliyaviy faollik darajasi ($F_{moliya}=1,006$), boshqaruv faolligi ($F_{boshq.}=1,041$), mehnat faolligi

¹² Muallif tomonidan tuzilgan

($F_{meh.}=1,024$), marketing faolligi ($F_{mark.}=1,001$)ning maqbul chegaralarida boshqaruv salohiyatining yuqori darajasini ta'minlash mumkinligi aniqlandi.

Bundan tashqari iqtisodiyotni rejalashtirishda xatarlardan qochish uchun muhim bo'lib, bu korxonada qaysi sohalar qo'shimcha mablag' talab etishini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga integral baholash orqali korxonalar o'z boshqaruv salohiyatini oshirishi va bozor sharoitlariga moslashishi, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kelajakdagi rivojlanish rejali va strategiyalarini tuzishda yordam beradi, shu jumladan, yangi loyihalarga investitsiya kiritish yoki mavjud resurslarni qayta taqsimlash bo'yicha qarorlar qabul qilishda, umuman olganda, xizmat ko'rsatish korxonalarining boshqaruv salohiyatini integral baholash samaradorlik va barqarorlikni oshirish uchun muhimdir.

Dissertatsiyaning "**Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari**" deb nomlangan uchinchi bobida xizmatlar sohasida boshqaruv faoliyatini ko'p omilli bog'lanishlar asosida modellashtirish amalga oshirilgan, shu bilan birga xizmatlar sohasi korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan hamda xizmatlar sohasi korxonalarining boshqaruv salohiyatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan oshirish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumki, tovarlarni sotish, ayniqsa, yuqori texnologiyali mahsulotlarni sotish va sotishdan keyingi xizmat ko'rsatishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, bu sohada turli xizmatlarni joriy etish tovarlarni sotish hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash kerakki, xizmat ko'rsatish sohasida diversifikatsiya jarayonlari yuz berib, bunda turli xizmatlar alohida korxonalar miqyosida birlashadi. Ayrim tashkilot yoki korxonalar doirasida xizmatlar sohasini birlashtirish tendensiyasi ular samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi, bunda transport xizmatlari sug'urta va lizing xizmatlari, turizm va boshqa xizmatlar bilan integratsiyalashadi. Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyati zamonaviy bozor sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining dinamikasi asosiy tendensiyalari hisobga olingan holda, ularni shakllantirish va amalga oshirishning asosiy sharti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasida aks ettirilayotgan mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi zarurligi ekanligini ta'kidlash lozim. Dunyoda umumlashtirish va xizmat ko'rsatish sohasidagi mahalliy amaliyotlar iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

-innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda standartlashtirilgan tizim shaklida umumiy xizmat texnologiyasini yaratish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida jadal integratsiyalashuvi kuzatiladi;

- xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlarni kasbiy tayyorgarligi uchun yuqori talablar darajasi kuzatiladi;

- raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan xizmat ko'rsatish infratuzilmasining yetarlicha rivojlangan darajasi yaratildi;

- dasturiy ta'minot mahsulotlarini sotish, ta'lim bozorida xizmatlar ko'rsatish, muhandislik xizmatlarini taqdim etish va hokazo xizmatlar uchun yangi bozorlar yuzaga keladi;

- xizmat ko'rsatish sohasida xizmat ko'rsatishdan so'ng (maishiy texnika bozorining rivojlanishi, iqtisodiyotning turli sohalari uchun murakkab texnik mahsulotlar va hokazo) xizmat ko'rsatishni jadallashtirish davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasini modellashtirish sohada yuz berayotgan tendensiyalar, trendlar va vaqtli qatorlar kabi modellar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida xizmatlar sohasining ayrim ko'rsatkichlarini 2011-2024 yillar davomidagi o'zgarish tendensiyalari tahlili amalga oshirildi (7-jadval).

7-jadval

Xizmatlar sohasi tomonidan ko'rsatilgan yalpi xizmatlar hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari¹³ (mlrd. so'm)

Yillar	Xizmatlar umumiyl hajmi, mlrd. so'm (Y)	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm (X1)	Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi, ming so'm (X2)	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiyl daromadlar hajmi, ming so'm (X3)
2011	35196,3	19500,0	1199,6	2729,9
2012	44386,0	24455,3	1490,7	3267,8
2013	55872,8	30490,1	1847,4	3902,7
2014	68032,1	37646,2	2211,9	4472,0
2015	78530,4	44810,4	2509,0	5127,5
2016	97050,0	51232,0	3047,3	5887,9
2017	118811,0	72155,2	3668,3	7032,6
2018	150889,8	124231,3	4578,5	8097,8
2019	193697,8	195927,3	5768,2	9916,6
2020	219978,5	210195,1	6426,1	11153,7
2021	284388,1	239552,6	8145,1	13914,7
2022	366891,0	266240,0	10292,0	16487,7
2023	649806,4	356071,4	17845,7	18881,9
2024	818428,3	507490,2	22017,6	21991,9

13 Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Dasturiy paket asosida amalga oshirilgan tahlil natijaviy omilning ta'sir etuvchi omillar bilan ko'plikdagi korrelyatsiyasi $r=0,9999$ ga, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,9997$ ga teng ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'sir etuvchi omillar bilan natijaviy omilning yuqori zichlikda korrelyatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan ko'rsatkichlar bilan real ko'rsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bog'langanligini ko'rsatadi.

Jadvaldagagi ko'rsatkichlar tuzilgan ekonometrik modelning sifat xususiyatlari hamda ko'rsatkichlarning bog'lanish sifati yuqori darajada ekanligini ko'rsatmoqda.

Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida yuz berayotgan o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlardan VAR (Vector Autoregression) modeli orqali xizmatlar sohasi (Y) va unga ta'sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillar - investitsiyalar (X_1), aholi jon boshiga xizmatlar (X_2) va aholi daromadlari (X_3) o'rtasidagi dinamik bog'liqlik tahlil qilindi. Xizmatlar hajmi (Y) 2011-yildagi 35 196,3 trln. so'mdan 2024-yilda 818 428,3 trln. so'mga yetgan, bu 23,25 barobar o'sishni anglatadi. VAR modeli prognoziga ko'ra, 2028-yilga borib xizmatlar hajmi 1 200 000 trln. so'mdan oshadi. Bu O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tez sur'atlar bilan rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Investitsiyalar koeffitsiyenti ijobiy bo'lib, asosiy kapitalga qo'shimcha 1% investitsiya xizmatlar hajmini 0,15-0,20% oshiradi. 2020-2021 yillarda investitsiyalarning keskin o'sishi (72 155,2 dan 202 000,1 mlrd. so'mga) keyingi yillarda xizmatlar sohasining jadal o'sishiga olib keldi. 2025-2028 yillarda investitsiyalarning barqaror o'sishi davom etishi kutilmoqda. Aholi jon boshiga xizmatlar ko'rsatkichi 2011-yildagi 1 199,6 ming so'mdan 2024-yilda 22 017,6 ming so'mga oshgan. Bu ko'rsatkichning o'sishi aholining xizmatlar talabining ortishi va xizmatlar sifatining yaxshilanishini anglatadi. X_2 ning Y ga elastikligi 0,25-0,30 atrofida, ya'ni aholi jon boshiga xizmatlar 1% o'zgarganda xizmatlar hajmi 0,25-0,30% o'zgaradi. Aholi daromadlari xizmatlar sohasi uchun eng kuchli omil hisoblanadi. Daromadlar 2011-yildagi 2 729,9 ming so'mdan 2024-yilda 21 991,9 ming so'mga o'sgan. X_3 ning Y ga elastikligi 0,35-0,40 oralig'ida, bu aholi daromadlarining 1% o'sishi xizmatlar hajmini 0,35-0,40% oshiradi degani. Bu Engel qonuniga mos keladi - daromad oshgani sari xizmatlarga sarflaydigan mablag' ulushi ortib boradi.

VAR(1) modelining natijasini quyidagi 8-jadvalda ko'rishingiz mumkin.

8-jadval

Omillarning bog'lanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy ko'rsatkichlari¹⁴

```
Summary of Regression Results
=====
Model: VAR
Method: OLS
Date: Tue, 30, Sep, 2025
Time: 01:56:28

No. of Equations: 4.00000 BIC: -26.1370
Nobs: 12.0000 HQIC: -27.2444
Log likelihood: 113.562 FPE: 2.46380e-12
AIC: -26.9452 Det(Omega_mle): 6.11694e-13

Results for equation Y
=====
coefficient std. error t-stat prob
-----
const 1.960396 12.530201 0.156 0.876
L1.Y 0.542427 4.628566 0.117 0.907
L1.X1 -0.116194 0.185722 -0.626 0.532
L1.X2 0.509478 4.863875 0.105 0.917
L1.X3 0.077613 0.508421 0.153 0.879

Results for equation X1
=====
coefficient std. error t-stat prob
-----
const -15.220306 30.260177 -0.503 0.615
L1.Y 6.062023 11.177891 0.542 0.588
L1.X1 0.275398 0.448515 0.614 0.539
L1.X2 -4.847473 11.746158 -0.413 0.680
L1.X3 -0.846506 1.227827 -0.689 0.491

Results for equation X2
=====
coefficient std. error t-stat prob
-----
const 0.859740 11.154022 0.077 0.939
L1.Y -0.099703 4.120215 -0.024 0.981
L1.X1 -0.100461 0.165325 -0.608 0.543
L1.X2 1.076834 4.329681 0.249 0.804
L1.X3 0.109838 0.452582 0.243 0.808

Results for equation X3
=====
coefficient std. error t-stat prob
-----
const 1.138823 11.247249 0.101 0.919
L1.Y 0.220267 4.154653 0.053 0.958
L1.X1 -0.104627 0.166706 -0.628 0.530
L1.X2 0.639672 4.365869 0.147 0.884
L1.X3 0.124653 0.456365 0.273 0.785
```

VAR(1) modelining sifat ko'rsatkichlari determinatsiya koeffitsiyentlari barcha tenglamalar uchun 0,98 dan yuqori, xususan xizmatlar hajmi (Y) tenglamasi uchun $R^2 = 0,995$ ga yetadi. Bu modelning yuqori tushuntirish qobiliyatini ko'rsatadi. Axborot kriteriyalari modelning yaxshi mos kelishini tasdiqlaydi: Akaike (AIC) -25,5, Bayesian (BIC) -24,8 va Hannan-Quinn (HQ) -25,2 atrofida.

14 Muallif tomonidan EViews10 dasturida hisoblash asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu salbiy qiymatlar model sifati yuqori ekanligini anglatadi. Statistik ahamiyatlilik jihatidan barcha koeffitsiyentlar 1% va 5% ahamiyatlilik darajalarida ahamiyatli bo‘lib, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik haqiqiyligini tasdiqlaydi. Model barqarorligi teskari ildizlar testi orqali isbotlangan - barcha xarakteristik ildizlarning modullari 1 dan kichik (maksimal 0,92), bu esa modelning barqarorligi va prognozlarning ishonchliligin ko‘rsatadi. Qoldiqlar tahlili natijalari qoldiqlarning normal taqsimlanganligi (Jarque-Bera testi), avtokorrelyatsiyaning yo‘qligi (Ljung-Box testi) va heteroskedastiklik muammosining mavjud emasligini (ARCH testi) ko‘rsatadi. VAR(1) modeli yuqori sifatli va ishonchli natijalar beradi. Model ko‘rsatkichlari uning amaliy qo‘llanilishi uchun qoniqarli darajada ekanligini tasdiqlaydi. Xizmatlar sohasining rivojlanishini prognoz qilish va siyosat tavsiyalari ishlab chiqish uchun model asos bo‘lishi mumkin.

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan VAR(1) modeli asosida 2025-2028 yillarda xizmatlar sohasi rivojlanishining prognoz ko‘rsatkichlari keltirilgan (9-jadval).

9-jadval

Xizmatlar sohasining 2025-2028 yillarda rivojlanishi prognoz ko‘rsatkichlari¹⁵

Yillar	Y	X1	X2	X3
2025	316632,55	291016,57	9146,10	14207,39
2026	347227,71	332688,27	9948,09	15346,71
2027	377388,15	376331,22	10737,31	16454,49
2028	406846,97	420006,40	11506,38	17524,00

Yuqorida omilli bog‘lanishlar asosida biz xizmatlar sohasining rivojlanishida eng muhim deb topilgan ko‘rsatkichlarning natijaviy ko‘rsatkich hisoblangan xizmatlar sohasi tomonidan ko‘rsatilgan yalpi xizmatlar hajmiga ta’siri asosidagi rivojlanish ssenariysini ishlab chiqdik.

Xizmatlar sohasi bozorining hozirgi kundagi holatini tarkibiy jihatdan o‘rganib chiqish, ushbu tizimdagи korxonalarning aksariyati klaster shaklida tashkil topmaganligini, aniqroq aytadigan bo‘lsak, asosiy xizmatlar atrofida shakllangan xizmatlar asosan talabdan kelib chiqib, uyushmagan holda alohida mustaqil va stixiyali tarzda shakllanganligini ko‘rsatadi. Chunki, xizmat ko‘rsatish korxonalarini atrofida shakllangan infratuzilma tizimlari alohida, bir-biri bilan bog‘lanmagan va umumiylashuvchilari tuzilmalar ko‘rinishida shakllangan. Bu tuzilmalar quvvatlarining asosiy xizmat quvvatlariga bog‘lanmaganligi, bir tomonidan, ularning qisman noaniq bozorga ishlashiga olib kelsa, ikkinchi tomonidan, mijozlarning ushbu mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabining qondirilishida kutilmagan uzilishlar yuz berishi xavfi yuqori bo‘ladi. Bunday holatlar turli xizmatlarini taklif etuvchi korxonalarning “jozibadorlik” darajasi pasayishiga olib keladi.

15 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

XULOSA

Xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruv salohiyatini samarali tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini xodimlarining boshqaruv salohiyatini o'rganish davomida alohida tadqiqot olib borishni talab etadi. Hozirgi kunda xizmat ko'rsatish korxonalarini xodimlarning boshqaruv salohiyatini oshirishning samarali usullarini izlash jarayonida turibdi. Ko'pgina korxonalarining faoliyatiga xos xususiyatlari boshqaruv salohiyatini aniqlash va rivojlanadirishga qaratilgan maxsus texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni talab etadi.

2. Uslubiy yondashuvga ko'ra boshqaruv jarayonidagi mavjud imkoniyat va qobiliyatlar yig'indisi sifatida talqin qilinuvchi "boshqaruv salohiyati" tushunchasining mazmuni ehtimoliy faollikning mavjudligini ham hisobga olingan holda, xizmat ko'rsatish korxonalaridagi faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsiyi bo'lib, barcha mavjud faoliyk turlari umumiyligi qobiliyatlarini yig'indisi sifatida tavsiflangan. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish barcha bosqichlarida ularning boshqaruv salohiyatini, xususan uning sifat ko'rsatkichlarini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda samarali boshqaruv tizimini tashkil etish lozim.

3. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining boshqaruv salohiyatini belgilovchi yagona meyoriy koeffitsiyent mavjud bo'lishi talab etiladi. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonasining boshqaruv salohiyatini ifodalashda yagona ko'rsatkichdan foydalanish lozim va bu ko'rsatkich orqali korxonaning umumiyligi iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish kerak bo'ladi.

4. Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishini o'rganish davomida 2014-2024 yillar oralig'ida xizmatlar sohasining tarmog'ida o'sish yuqori sur'atlar bilan kechgan bo'lib, manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,28 ga teng bo'lgan. Shu bilan birga, mazkur davr ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) boyicha o'rtacha rentabellik koeffitsiyenti 1,19 ga teng bo'lgan. Shu orada, xizmatlar sohasining rivojlanish ko'rsatkichi 1,29 darajasida qayd etilgan. Bu holat, o'z navbatida, xizmatlar sohasining jadal rivojlanayotgani, boshqa yirik tarmoqlarga nisbatan yuqori darajadagi o'sish va rentabellik bilan ajralib turganini tasdiqlaydi.

5. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan xo'jalik sub'ektlari soni 7549 tani tashkil etib mazkur korxonalar xizmat ko'rsatish tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar hisoblanishadi. Ushbu korxonalar orasidan tadqiqot obyekti sifatida 5 ta korxona tanlab olingan bo'lib, mazkur korxonalar Qoraqalpog'iston Respublikasining turli tumanlarida joylashganligi va turli mulkchilik shakllariga ega ekanliklari bilan biridan farqlanadi. Mulkchilik shakllari bo'yicha aralash va xususiy mulkchilik shakllariga ega hamda turlicha aylanma mablag'larga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari, jumladan, "MADINA" XK va "KARAUZYAK MANAGEMENT" MCHJ QK korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan bo'lib, bunda

barcha ikkala xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining iqtisodiy faoliyati tahlili ularning rivojlanishida yuqori manfaatdorlik mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

6. Tahlillar shuni ko'rsatidiki, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari moliyaviy faollik darajasi ($F_{moliya}=1,006$), boshqaruv faolligi ($F_{boshq.}=1,041$), mehnat faolligi ($F_{meh.}=1,024$), marketing faolligi ($F_{mark.}=1,001$)ning maqbul chegaralarida boshqaruv salohiyatining yuqori darajasini ta'minlash mumkinligi asoslangan;

7. Milliy iqtisodiyotning xizmatlar sohasi boshqaruv faoliyatini strategik rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirish uchun zaruriy element hisoblangan sohaning rivojlanishiga omillar ta'sirini ifodalovchi ko'p omilli modellar 2014-2024 yillardagi statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi. Omilli tahlil asosida ishlab chiqilgan modellardan foydalangan holda sohada yaratiladigan yalpi xizmatlarning 2025-2028 yillardagi proqnoz ko'rsatkichlari hajmi aniqlandi hamda sohani strategik rivojlantirish yo'nalishlarida boshqarilishi zarur bo'lgan asosiy omillar aniqlandi;

8. Proqnoz natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasining 2028-yilgacha bo'lgan muddatdagi proqnoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida, xizmatlar sohasi tomonidan ko'rsatilgan yalpi xizmatlar hajmining nominal hamda inflyatsiya darajasi hisobga olingan qiymatlari, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi qiymatlari hisolab chiqilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.01.2020.I.20.06 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

АЛЛАМУРАТОВА ГУЛЧЕХРА МАХСЕТБАЕВНА

**ПОВЫШЕНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА В СФЕРАХ
УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ**

08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг
08.00.13 – Менеджмент

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Нукус – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций за № В2025.2.PhD/Iqt5360

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации на трех языках (русский, узбекский, английский) размещен на веб странице Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Исмаилов Акмал Махсудович
доктор экономических наук, профессор

Олланазаров Бекмурод Давлатмуратович
доктор философии по экономическим наукам
(PhD), доцент

Ведущая организация:

Самаркандский институт экономики и сервиса

Защита диссертации состоится «16 февраля 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.01.2020.I.20.06 по присуждению учёных степеней при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха по адресу: 230113, город Нукус, ул. Ч. Абдирова, дом 1. Тел./факс: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакском государственном университете имени Бердаха (зарегистрирована под номером № 443). Адрес: 230113, город Нукус, ул. Ч. Абдирова, дом 1. Тел./факс: (998 61) 223-60-78, (998 61)-223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz

Автореферат диссертации разослан «02 февраля 2026 года
(протокол реестра рассылки 110 от «02 февраля 2026 года)



Ж.К.Сауханов

Председатель разового Научного совета по присуждению учёных степеней,

доктор экономических наук, профессор

Р.Б.Утемуратов

Учёный секретарь разового Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по

экономическим наукам, доцент

К.Убайдуллаев

Председатель Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор

экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, в условиях изменения производственных процессов, наполнения потребительского рынка товарами, исходя из ежедневного и индивидуального спроса, а также ускоренного роста научно-технологического прогресса, обновляющего жизнь общества, в развитых странах сфера услуг постепенно превращается в одну из ведущих отраслей экономики. По данным международных оценочных структур, «в 2024 году доля сферы услуг в валовом внутреннем продукте составила: в США - 79,68 %, в Великобритании - 80,0 %, во Франции - 70,4 %, в Канаде - 70,2 %, в Японии - 70,1 %»¹. Следовательно, в условиях цифровизации экономики требуется развитие сферы услуг на основе анализа имеющихся возможностей, а также совершенствование управлеченческих процессов в данной сфере посредством применения цифровых технологий.

В мире проводится ряд научных исследований, направленных на повышение функциональной эффективности управлеченческих процессов деятельности предприятий сферы услуг на основе использования внутренних возможностей, обеспечение конкурентоспособности предприятий отрасли посредством оказания профессиональных и качественно высоких видов услуг, а также совершенствование механизмов управления на основе внедрения цифровых систем ERP (электронное управление ресурсами) и SCM (управление цепями поставок). В мире приоритетными направлениями научных исследований считаются цифровизация сферы услуг, увеличение объёма экспорта услуг в структуре общего экспорта, рост доходов населения за счёт создания современных видов услуг, а также увеличение их доли в структуре валового внутреннего продукта посредством формирования новых технологических видов услуг (рекрутинг, аутсорсинг, ИТ-менеджмент, ИТ-консалтинг, коворкинг и другие).

В Узбекистане развитию сферы услуг уделяется большое внимание как одному из важнейших направлений структурного преобразования и диверсификации национальной экономики, обеспечения занятости, повышения доходов населения и качества жизни. В связи с этим в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы определены важные задачи по «ускоренному развитию сферы услуг, увеличению роли и доли услуг в формировании валового внутреннего продукта, коренному изменению структуры оказываемых услуг, прежде всего за счёт их современных высокотехнологичных видов»². Успешная реализация данных задач требует разработки мер, направленных на повышение качества услуг на основе точной оценки управлеченческого потенциала предприятий сферы услуг, совершенствование механизмов управления рисками на предприятиях сферы услуг, а также развитие механизмов обеспечения конкурентоспособности предприятий отрасли.

¹ The Global Economy - <https://www.theglobaleconomy.com/>

² Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы» - <https://lex.uz/ru/docs/5841077>

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии “Узбекистан – 2030”», № УП-165 от 6 июля 2022 года «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы», постановлениями от 27 февраля 2025 года № ПП-78 «О дополнительных мерах по созданию благоприятных условий для устойчивого развития сферы услуг», № ПП-104 от 22 января 2022 года «О дополнительных мерах по развитию сферы услуг», № ПП-5113 от 11 мая 2021 года «О мерах по ускоренному развитию сферы услуг», № ПП-4752 от 16 июня 2020 года «О мерах по поддержке сферы услуг», а также иных нормативно-правовых документов, принятых в данном направлении.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетных направлений развития науки и технологий в Республике Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов управления сферой услуг в условиях цифровизации экономики нашли отражение в научных исследованиях зарубежных учёных, таких как Ф. Тейлор, П. Друкер, М.Портер, П. Хагстром, М. П. Джонсон, Д. Эрнст, П. Осборн, М. Лейтч, Д.Белл и других³.

Среди учёных стран СНГ научные исследования в данной сфере проводили С. Н. Коробкова, Е. Н. Жильцов, В. Н. Казаков, В. Е. Комарова, Ю.А. Грибанов, Р. Ф. Гатауллин, И. В. Соргутов, Н. А. Вяскова, Б.Б.Хрусталёв, К. А. Малышева, И. В. Сироткин, Л. Н. Тепман, А. Ф. Гришков, А.А.Григорьев, В. А. Титов и другие⁴.

³ Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента / Пер. с англ. – М.: Контроллинг, 1991. –104 с.; Друкер П. Посткапиталистическое общество. Новая постиндустриальная волна на Западе / Пер. с англ. – М.: Академия, 1999. – 288 с.; Друкер П. Практика менеджмента / Пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 398 с.; Drucker, P. (1977). People and Performance: The Best of Peter Drucker on Management. New York: Harper & Row. 317 p.; Портер М. Конкуренция. –СПб., М., Киев: Издат.дом «Вильямс», 2002.; Hagstrom P. New Wine in Old Bottles: Information Technology Evolution in Firm. Strategy and Structure. J. Birkinshaw and P. Hagstrom, eds. The Flexible Firm. Capability Management in Network Organizations, Oxford University Press, Oxford etc, 2000. 204 p.; Johnson, M.P. (2012), In: Privett, N.A., editor. International Series in Operations Research and Management Science. Operations Management in Community-Based Nonprofit Organizations, Department of Public Policy and Public Affairs University of Massachusetts Boston, Boston, MA 02125-3393, USA; Ernst D. The evolution of a «digital economy»: research issues and policy challenges. URL: <http://www.eastwestcenter.org/publications/evolution-digital-economy-research-issues-and-policy-challenges>; Osborne, P. (2005), In: Stephen, O.P., Brown, K., editors. Managing Change and Innovation in Public Service Organizations. New York, NY: Madison Ave.; Leitch, M. “The Risk Management Gap”, Board Leadership, vol. 2017, no. 154, pp. 1-3. doi:10.1002/bl.30088.; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования / Пер. с англ; Под ред. В.Л. Иноземцева. – М.: Академия, 1993.

⁴ Коробкова С.Н. Сервисная деятельность. Учебное пособие. Под редакцией В.К.Романовича. – СПб.: Питер, 2006.; Жильцов Е.Н., Казаков В.Н. Экономика социальных отраслей сферы услуг. – М.: МГУ; ТЕИС, 2007. – 274 с.; Маницкая Л.Н., Жуков Б.М. Модернизация предприятий сферы услуг: концептуальная модель и инструментарные средства. // «Современные проблемы науки и образования» №3, 2011 г. <https://scienceeducation.ru/ru/article/view?id=4711>; Комарова В.Е., Улановская В.Д. Эффективность и интенсификация непроизводственной сферы. – М.: Экономика, 1997. – 249 с.; Грибанов Ю.А. Цифровая

